



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI  
VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI



Respublika  
Ta'lif Markazi

**2022–2023-O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARINING 11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY  
DAVLAT ATTESTATSIYASI O'TKAZISH BO'YICHA ONA TILI  
VA ADABIYOT FANLARIDAN METODIK TAVSIYA VA  
MATERIALLAR**



**Toshkent-2023**

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta’lim markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 6-martdagи navbatdan tashqari yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinf o‘quvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish bo‘yicha metodik tavsiya va materiallarni tijoriy maqsadda ko‘paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari metodbirlashmali bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15–20% gacha o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

**Tuzuvchi:**

**X. Ibrohimov** – Respublika ta’lim markazi adabiyot fani metodisti.

**Taqrizchilar:**

**Z. Rashidova** – Toshkent shahridagi Prezident maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

**N. Hakimova** – Toshkent viloyati Olmaliq tumani 19-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

## **ADABIYOT** **11-SINF**

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li, xalq xo‘jaligining turli sohalarida erishilgan yutuqlar, o‘quvchilarda ona Vatanga muhabbat va yurtga sadoqat hissini o‘stirish, yurtboshimiz tomonidan milliy an‘analarimiz va qadriyatlarimizning tiklanishi, mamlakatimiz aholisining ijtimoiy turmush tarzini yaxshilash borasida olib borilayotgan islohotlar mohiyatini anglash, shu orqali o‘quvchilarni ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy bilimlarni puxta egallashga yo‘naltirish, ularda milliy g‘ururni shakllantirish, mamlakatimizda har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlар ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biridir.

Respublika umumiyligi o‘rta ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida davlat bitiruv (yakuniy) imtihonlari o‘tkazilishi munosabati bilan imtihon olish uchun insho mavzulari tavsiya etilmoqda. Imtihonda insho tanlanishidan maqsad o‘quvchilarda mantiqiy-kreativ mushohada yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, imlo va uslubiy savodxonlikni tarkib toptirish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Insho mavzulari kiritilishining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, ona tili va adabiyot fanlaridan olgan bilimlari hamda savodxonligi mustahkamlanadi, ijodkorlik, so‘z boyligidan foydalana olish malakasi oshadi, o‘z qarashlarini mantiqiy, tizimli ifodalash tajribasiga ega bo‘ladi va shu yo‘nalishda fikrini yetkazib berishni o‘rganadi.

11-sinflar uchun imtihon biletlari uch variantda tuzilgan bo‘lib, har bir variantda uchtadan insho mavzusi bor. Shunga ko‘ra, variantdagi mavzularning ikkitasi adabiyot fanidan imtihon materiallari Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida belgilangan mavzular asosida, bittasi esa erkin mavzuda tayyorlandi.

Inshoni yozib, o‘quvchi tomonidan o‘qib chiqilib, xatolar ustida ishlanishi, qo‘sishchalar qo‘shilishini inobatga olib, 3 akademik soat vaqt belgilanadi.

## Inshoni baholash mezoni

<b>t/r</b>	<b>Bilim, ko‘nikma, malakalar</b>	<b>Ball</b>
1.	Insho mavzusiga mos epigraf tanlay olishi va reja tuza olgani; insho mavzusini reja asosida to‘liq va izchil yoritgani; ifodalash usulida so‘z boyligining rang- barangligi, so‘zlarni to‘g‘ri tanlashi va o‘z o‘rnida qo‘llashi, gap tartibining to‘g‘riligi, til vositalaridan foydalangani; insho mazmuniga tarixiy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa materiallarning singdirilgani; inshoni mustaqil ijodiy fikrlab, dalillar asosida, ravon va savodli yoza olgani; inshoni xulosalay olishi va uslubi o‘ziga xos bo‘lib, 1-2 ta qo‘pol bo‘lmagan imlo yoki ishoraviy (tinish belgilari) xatoga yo‘l qo‘ysa.	5
2.	Insho mavzusiga mos epigraf tanlay olishi va reja tuza olishi; insho mavzusini reja asosida to‘liq va izchil yoritgani; ifodalash usulida so‘z boyligining rang- barangligi, so‘zlarni to‘g‘ri tanlashi va o‘z o‘rnida qo‘llashi, gap tartibining to‘g‘riligi, til vositalaridan foydalangani; insho mazmuniga tarixiy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa materiallarning singdirilgani; inshoni mustaqil ijodiy fikrlab, dalillar asosida, ravon va savodli yoza olsa-da, lekin xulosalay olmasa va o‘ziga xos uslubi bo‘lmasa hamda 1 ta uslubiy, 2 ta imlo, 2 ta ishoraviy (tinish belgilari) xatosi bo‘lsa.	4
3.	Insho mavzusiga mos reja tuzishda izchillik yetishmasa; insho mavzusi reja bo‘yicha to‘liq va izchil yoritilmasa; ifodalash usulida so‘z boyligining kamligi, so‘zlarni to‘g‘ri tanlay olmasa va o‘z o‘rnida qo‘llay olmasa, insho mazmuniga tarixiy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa materiallarni yetarlichcha singdira olmasa; inshoni mustaqil ijodiy fikrlab, dalillar asosida ravon va savodli yoza olmasa hamda 3 ta uslubiy, 4 ta imloviy va 5 ta ishoraviy (tinish belgilari) xatosi bo‘lsa.	3
4.	Insho mavzusiga mos reja tuza olmagan bo‘lsa; inshoni yoritishda mavzudan chetga chiqqan bo‘lsa; insho qolipga tushgan tafsilot bo‘lsa, inshoni mustaqil ijodiy fikrlab, dalillar asosida ravon va savodli yoza olmagani hamda 4 ta uslubiy, 5 ta imlo va 6 tagacha ishoraviy (tinish belgilari) xatosi bo‘lsa.	2
5.	Insho mavzusiga mos reja tuza olmagan bo‘lsa; inshoni yozishda o‘quvchi mavzuni tushunmagan bo‘lsa, fikrini bayon qilishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ysa, savodli yoza olmagan bo‘lsa hamda 5 ta uslubiy, 5 ta imlo va 7 tagacha ishoraviy (tinish belgilari) xatosi bo‘lsa.	1

## **ONA TILI VA ADABIYOT**

### **11-sinf**

#### **1-BILET**

1. O‘zbek xalq dostonlarida vatanparvarlik fazilatlarining aks etishi.
2. Anton Chexovning “Garov” hikoyasi qahramonlariga chizgilar.
3. Maktabdan keyingi hayot: oliv ta’lim yoki ish?

#### **2-BILET**

1. “Ruhlar isyoni” dostonining bugungi kundagi ahamiyati.
2. Jahon adabiyoti durdonalaridan olgan taassurotlarim.
3. Qani edi, mакtabimiz shunday bo‘lsa...

#### **3-BILET**

1. Abdulla Oripov she’riyatida rangin tuyg‘ular tasviri.
2. “Choliqushi” romani bosh qahramoni – Farida obraziga chizgilar.
3. 2050-yilgi O‘zbekiston mening tasavvurimda.